

Vazirlar mahkamasining 2021-yil 7-yanvardagi 1-son qarori bilan tasdiqlangan “Soliq tekshiruvlarini tashkil etish va o'tkazish tartibi to‘g‘risida” Nizom mazmuni bo'yicha yozma tahlil.

Shodiyeva Madinabonu Bobir qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti talabasi

Annotatsiya: Soliq tekshiruvining 3 xil turi bor, bular kameral, sayyor soliq tekshiruvi, soliq audit. Ushbu yozma tahlil asosida har bir tekshiruvning alohida tahlili hamda birgalikdagi o'xhash va farqli jihatlari yoritib o'tamiz.

Kalit so'zlar: Soliq tekshiruvi, soliq tekshiruvi ishtirokchilari, kameral soliq tekshiruvi, sayyor soliq tekshiruvi, soliq audit.

Soliq tekshiruvi bo'yicha ushbu nizom O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi(bundan buyon matnda Kodeks deb yuritiladi)ga asosan ishlab chiqilgan hamda soliq tekshiruvlari soliq to‘lovchilar, yig‘imlarni to‘lovchilar va soliq agentlari tomonidan soliq to‘g‘risidagi qonunchilikka rioya etilishi ustidan nazorat qilish maqsadida o'tkaziladi. Ushbu tekshiruv soliq to‘lovchi to‘g‘risida soliq organlarida mavjud bo‘lgan ma'lumotlarni o‘rganish va tahlil qilish asosida amalga oshiriladi.

Soliq tekshiruvining 3 xil turi bor, bular kameral, sayyor soliq tekshiruvi, soliq audit. Ushbu yozma tahlil asosida har bir tekshiruvning alohida tahlili hamda birgalikdagi o'xhash va farqli jihatlari yoritib o'tamiz.

Undan oldin esa soliq tekshiruvi ishtirokchilari(subyektlari)ning huquq va majburiyatları haqida qisqacha to’xtalsak. Soliq organining mansabdor shaxsi, soliq to‘lovchi va uning vakillari soliq tekshiruvining ishtirokchilari hisoblanadi. Kodeksda tekshiruvga ko’maklashuvchi subyektlar ham keltirib o’tilgan bo’lib, bular guvoh, ekspert, mutaxassis, tarjimon va xolislardan hisoblanadi. Soliq to‘lovchilar mazkur Nizomning 17-bandiga muvofiq bir qancha imtiyozlarga ega. Ular jumlasiga tekshiruv vaqtida shaxsan ishtirok etish, tekshiruv predmetiga aloqasi

bo'limgan talablarini bajarmaslik, tushuntirishlar berish, avval taqdim etilgan hujjatlarni bermaslik, tekshiruv materiallari bilan tanishish, shikoyat qilishva boshqalar. Shuningdek, tekshiruv to'g'risidagi buyruq tegishli tartibda rasmiylashtirilmagan, mansabdor shaxs buyruqda ko'rsatilmagan, guvohnomasi mavjud bo'limgan, tekshiruv muddati belgilanmagan bo'lsa, mansabdor shaxslarini soliq tekshiruvini o'tkazish uchun hududga va joylarga qo'ymaslik huquqiga ega. Soliq to'lovchi qonuniy hisoblangan talablarni va belgilangan hujjatlarni organga taqdim etish kabi majburiyatları bor. Soliq organining mansabdor shaxsining huquq va majburiyatları Nizomning 19 va 20-bandlarida aniq ko'rsatib o'tilgan. Bunda ularning huquqlari har bir tekshiruv turidan kelib chiqqan holatda alohida ko'rsatilgan.

1) Dastlab, **kameral soliq** tekshiruvidan boshlasak, bu turdag'i tekshiruv soliq to'lovchilarning soliqlar va yig'implarning o'z vaqtida va to'liq budget tizimiga to'lanishini tekshirish maqsadida soliq to'lovchi tomonidan taqdim etilgan soliq hisobotlarini va (yoki) soliq organida mavjud bo'lgan soliq to'lovchining faoliyati to'g'risidagi boshqa ma'lumotlarni o'rganish va tahlil qilish asosida o'tkaziladi. Kameral soliq tekshiruvini o'tkazishning 2 asosi mavjud. Birinchi asosda soliq organi mansabdor shaxsi quyidagilar bo'lganda tekshiruv o'tkazish **shart**:

-tekshiruvdan oldingi tahlil natijalarida aniqlangan tafovutlar bo'yicha soliq to'lovchiga soliq organi tomonidan yuborilgan xabarnomaga javoban xabarnoma olingan kundan e'tiboran o'n kun muddatda soliq to'lovchi tomonidan aniqlashtirilgan soliq hisoboti yoxud asoslantirishlar taqdim etilmaganda;

-soliq xavfini boshqarish tizimi asosida aniqlangan soliq to'g'risidagi qonunchilik buzilishi sodir etilganligi xavfi mavjudligida;

-soliq to'lovchi tomonidan taqdim etilgan soliq hisobotida tafovutlar yoki xatolar aniqlanganda.

Shu bilan birga mansabdor shaxs tekshiruv o'tkazishga **haqli** bo'lgan asoslar ham mavjud:

-soliq to'g'risidagi qonunchilik talablarining buzilishi holatlari haqida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari soliq organiga tushganda;

-soliq to'lovchi tomonidan oldin taqdim etilgan soliq hisobotiga nisbatan to'lanishi lozim bo'lgan soliq summasini kamaytiradigan yoki ko'rilgan zarar summasini ko'paytiradigan aniqlashtirilgan soliq hisoboti taqdim etilganda.

Kameral soliq o'tkazilishiga yo'l qo'yilmaydigan asoslar mavjud. Kodeksida belgilangan da'vo muddati o'tgan bo'lsa va/yoki soliq monitoringi o'tkazilayotgan bo'lsa soliq tekshiruvi o'tkazilmaydi. Kameral soliq organ rahbarining buyrug'i asosida o'tkaziladi, lta buyruq faqat 1 ta soliq to'lovchiga chiqariladi. Ushbu turdagи tekshiruvning umumiy muddati 60 kundan oshib ketishi mumkin emas. Tekshiruv natijalariga ko'ra **xulosa** tuzilib, unda boshlash tashabbusi uchun asos bo'lib xizmat qilgan ma'lumotlar ko'rsatilib, soliqqa oid huquqbazarliklarning aniqlanganligi yoki aniqlanmaganligi, qisman tasdig'ini topganligi yoki topmaganligi, soliq hisobotlaridagi tafovutlar yoki xatolar bayon etiladi. Tuzilgan xulosa 2 kunda tasdiqlanadi va kamchiliklar to'grisida soliq to'ovchiga talabnama yuboriladi. Soliq to'lovchi 5 kun ichida tegishli soliqlar bo'yicha aniqlashtirilgan soliq hisobotini yoxud aniqlangan tafovutlarning asoslarini tasdiqlovchi hujjatlar bilan soliq organiga taqdim etishi shart. Soliq to'lovchining taqdim etgan asosnomasi tegishli hujjatlar (asosnomalar) olingan kundan e'tiboran 15 kun ichida soliq organining rahbari (rahbari o'ribbosari) tomonidan ko'rib chiqiladi. Aniqlangan tafovutlar bo'yicha taqdim etilgan asosnomalarga to'liq yoki qisman rozilik berilgan taqdirda, soliq organi oldin yuborilgan talabnama bekor qilinganligi to'g'risidagi bildirish xatini yoxud soliq hisobotiga tuzatishlar kiritish to'g'risidagi aniqlashtirilgan talabnomani 3 kun ichida soliq to'lovchiga yuboradi.

2)Keyingi tekshiruv **Sayyor soliq** tekshiruvi - soliqlarni hisoblab chiqarish va to'lash sohasida soliq to'lovchilarning ayrim majburiyatlarini, shuningdek, soliq to'g'risidagi qonunchilikda belgilangan boshqa majburiyatlarini bajarish bo'yicha o'tkaziladigan tekshiruv bo'lib, unda hisobga olish hujjatlarining, tovar-moddiy qimmatliklar va pul mablag'lari harakatining, shuningdek, soliq to'lovchining faoliyati bilan bog'liq bo'lgan boshqa axborotning tahlili o'tkaziladi. Ushbu

tekshiruvning asosi quyidagicha:

soliq xavfini boshqarish tizimi orqali aniqlangan, soliq to‘g‘risidagi qonunchilikni buzish xavfi mavjudligi;

jismoniy yoki yuridik shaxslarning soliq yoxud valyuta to‘g‘risidagi qonunchilik buzilishi holatlari to‘g‘risidagi murojaatlari, shu jumladan, tovarlar va xizmatlarning narxini asossiz oshirib yuborish holatlari to‘g‘risida, yo‘lovchilarni yengil avtotransport vositalari bilan tashish bo‘yicha noqonuniy tadbirkorlik faoliyati;

ommaviy axborot vositalarida soliqqa va valyutaga oid huquqbazarliklar to‘g‘risidagi ma’lumotlar e’lon qilinganda;

o‘tkazilayotgan kameral soliq tekshiruvini xolisona amalga oshirish maqsadida qo‘srimcha ma’lumotlar olish zarurati yuzaga kelganda;

qo‘silgan qiymat solig‘i to‘lovchilarini soliq organlarida qo‘silgan qiymat solig‘i bo‘yicha maxsus ro‘yxatdan o‘tkazish jarayonida qo‘srimcha soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazish zarur bo‘lganda;

valyuta operatsiyalari amalga oshirilishining asoslanganligi yuzasidan monitoring olib borish jarayonida soliq organi yuborgan so‘rovnomaiga soliq to‘lovchi tomonidan hujjatlar yoki axborot taqdim etilmagan yoxud to‘liq taqdim etilmaganda;

sud, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, shuningdek, boshqa davlat organlari va tashkilotlaridan soliq va valyutaga oid huquqbazarliklar to‘g‘risida dalolat beruvchi axborot tushganda;

Ko‘rsatilgan soliqqa oid huquqbazarlik holatlari va ularni sodir etgan jismoniy shaxslarning murojaati soliq organlariga avval kelib tushgan va uning asosida soliq organlari tomonidan sayyor soliq tekshiruvi o‘tkazayotgan yoki sayyor soliq tekshiruvi materiallarini ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha soliq organining rahbari (rahbar o‘rinbosari) tomonidan tegishli qaror qabul qilinayotgan bo‘lsa, soliq organlari qonunchilik hujjatlarida evaziga haq to‘lanishi nazarda tutilgan soliqqa oid huquqbazarlik holatlari va ularni sodir etgan shaxslar to‘g‘risida takror kelib tushgan xabarlar asosida sayyor soliq tekshiruvlarini o‘tkazmaslik huquqiga

ega. Sayyor soliq tekshiruvi o'n kundan ko'p bo'lмаган muddatda o'tkaziladi. Sayyor soliq tekshiruvining o'ziga xos xususiyatlari shundan iboratki, tekshirilish obyektiga qarab bir necha turlarga bo'linadi. Tekshiruv natijalariga binoan dalolatnama rasmiylashtiriladi va bunday dalolatnama asosida soliq organi tekshirilayotgan shaxs to'g'risida o'zida mavjud bo'lgan ma'lumotlar yoki xuddi shunday soliq to'lovchilar to'g'risidagi ma'lumotlar asosida to'lanishi lozim bo'lgan soliq summasini mustaqil tarzda aniqlashga haqli. Dalolatnama sayyor soliq tekshiruvini o'tkazuvchi mansabdor shaxs va tekshirilayotgan shaxs tomonidan imzolanadi. Tekshirilayotgan shaxs ko'rsatilgan dalolatnomani imzolashni rad etgan taqdirda, mazkur dalolatnomaga bu haqida tegishli yozuv kiritiladi. Sayyor soliq tekshiruvi davomida soliq to'g'risidagi qonunchilikning buzilishi holatlari aniqlangan taqdirda, aniqlangan soliqqa oid huquqbazarliklar bo'yicha ish yuritish Soliq kodeksida belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Bunda moliyaviy sanksiyalar Soliq kodeksining 28 va 29-boblarida nazarda tutilgan miqdorlarda belgilanadi va pul undirish (jarimalar) tarzida qo'llaniladi)

So'nggi soliq tekshiruvi bu **Soliq audit** - soliq to'lovchining muayyan davrdagi moliya va soliq hisobotlarining soliq to'g'risidagi qonunchilikka barcha jihatlardan muvofiqligi va haqqoniyligini, soliq solish maqsadlarida buxgalteriya hisobi va soliq solish maqsadlarida hisobga olishda soliq majburiyatlarining to'g'ri shakllantirilishi va aks ettirilishini soliq organi tomonidan o'tkaziladigan o'rganish orqali soliqlarni to'g'ri hisoblash va to'lashning to'g'riligini tekshirishdir. Audit quyidagi hollarda o'tkaziladi:

soliq tavakkalchiligining yuqori toifasiga mansub bo'lgan;

�ameral soliq tekshiruvi natijasi bo'yicha soliq to'lovchi aniqlashtirilgan soliq hisobotini taqdim etmasa (shu jumladan, aniqlashtirilgan talabnomadan keyin), yoxud aniqlangan tafovutlar bo'yicha asosnomalarni taqdim etmasa, yoki u taqdim etgan asosnomalar yetarli emas deb topilgan hollarda;

ixtiyoriy tugatilayotgan yuridik shaxslarda (soliq maslahatchilari tashkilotlarining soliqlar bo'yicha xulosalari mavjud bo'lgan soliq to'lovchilar bundan mustasno);

soliq to‘lovchilarning jinoiy ishlar bo‘yicha moliya-xo‘jalik faoliyatini taftish qilinishi doirasida;

faoliyatini to‘xtatgan yakka tartibdagi tadbirkorlar, qat’iy belgilangan miqdorda yoki deklaratsiya asosida jismoniy shaxslardan daromad solig‘ini to‘laydiganlardan tashqari.

Soliq organlari soliq auditini o‘tkazilishi boshlanishidan kamida 30 kalendar kun oldin soliq to‘lovchiga soliq auditini o‘tkazilishi to‘g‘risida xabarnoma yuboradi(soliqlarni to‘lashdan bo‘yin tov lash belgilari mavjud bo‘lgan holatlar mustasno). Soliq auditini o‘tkazish muddati 2 oydan 6 oygacha uzaytirilishi mumkin:

soliq auditini jarayonida tekshirilishi lozim bo‘lgan hujjatlar hajmining ko‘pligi sababli soliq auditini o‘tkazish uchun buyruqda ko‘rsatilgan muddatning yetarli emasligi;

yaroqsiz holga kelgan hujjatlarning hamda soliqlarni hisoblab chiqarish bilan bog‘liq elektron axborotni saqlovchi jismlar qayta tiklanishi;

mutaxassis fikri olinishi;

ekspert jalg qilinishi;

tabiiy ofat yoki boshqa favqulodda va bartaraf etib bo‘lmaydigan holatlar.

Soliq auditini o‘tkazishning umumiyligi muddati olti oydan oshishi mumkin emas. Davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan vaqtidan boshlab moliya-xo‘jalik faoliyatini amalga oshirmagan hamda soliq qarzi mavjud bo‘lmagan tijorat tashkilotlarida soliq auditini o‘tkazilmaydi.

Audit tekshiruvining o’ziga xos xususiyati shundan iboratki, bunda hudud va binolar ko‘zdan kechiriladi. Bevosita soliq auditini o‘tkazuvchi soliq organlari mansabdor shaxslarining tekshirilayotgan shaxsning hududiga yoki binosiga kirishi ushbu mansabdor shaxslar tomonidan xizmat guvohnomalari ko‘rsatilgan va soliq organi rahbarining (rahbari o‘rinbosarining) ushbu shaxsning soliq auditini o‘tkazish to‘g‘risidagi buyrug‘i taqdim etilgan taqdirda amalga oshiriladi.

Bulardan tashqari Soliq auditini o‘tkazuvchi shaxs soliq to‘lovchidan soliq auditini uchun zarur bo‘lgan hujjatlarni talab qilib olishga haqli. Bunda talabnomalariga

olingandan 5 ish kunida taqdim etiladi, soliq to'lovchi talabnomani olgan kundan keying kunda yuborishi kerak. Soliq to'lovchidan xabarnomani olgan kundan e'tiboran ikki kun mobaynida ushbu xabarnoma asosida hujjatlarni taqdim etish muddatlarini uzaytirish yoki muddatlarini uzaytirishni rad etishga haqli bo'lib, bu haqida alohida qaror chiqaradi.

Soliq auditi dalolatnomasining barcha nusxalari soliq auditini o'tkazuvchi shaxslar tomonidan imzolanadi. Soliq auditi dalolatnomasining bir nusxasi soliq to'lovchiga soliq auditi tugaganidan keyin 3 ish kun ichida topshiriladi. Soliq auditi dalolatnomasini olgan kundan e'tiboran 10 kun ichida tegishli soliq organiga mazkur dalolatnomada bo'yicha umuman yoki uning ayrim holatlari yuzasidan yozma e'tirozlarini taqdim etishga haqli.

	Kameral	Sayyor	Audit
Bines ombudsmanni xabardor qilish	+	+	+
Tekshiruvni ro'yxatdan o'tkazish	3 kun, Buyruq	3 kun, Buyruq	3 kun, Buyruq
Tekshiruv o'tkazish asoslari	Nizomning 21-bandida	Nizomning 57-bandida	Nizomning 122-bandida
Tekshiruv o'tkazish muddati	60 kundan oshmasligi kerak	10 kundan oshmasligi kerak	2 oydan 6 oygacha
Tekshiruv yakunida	Talabnomma	Talabnomma	Talabnomma